Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEXANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	



RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Sulaymonov Farrux Shuxratovich

Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Kadrlar bo'limi boshlig'i.

Elektron pochta: sulaymonovfsh@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqqa tortish tizimi orqali fiskal tartibni kuchaytirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda soliqqa tortishning fiskal barqarorlikni ta'minlashdagi roli, soliq siyosatining institutsional va ma'muriy jihatlarini, shuningdek raqamli boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: fiskal siyosat, soliqqa tortish, fiskal barqarorlik, soliq ma'muriyati, raqamli boshqaruv, soliq madaniyati.

Abstract. This article analyzes the issues of strengthening fiscal stability in developing countries through the improvement of the taxation system. The study highlights the role of taxation in ensuring fiscal sustainability, examines the institutional and administrative aspects of tax policy, and emphasizes the importance of digital governance mechanisms in modern fiscal management.

Key words: fiscal policy, taxation, fiscal stability, tax administration, digital governance, tax culture.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы укрепления фискальной устойчивости развивающихся стран через совершенствование системы налогообложения. В исследовании раскрыта роль налоговой системы в обеспечении фискальной стабильности, проанализированы институциональные и административные аспекты налоговой политики, а также значение цифровых механизмов управления в современной фискальной среде.

Ключевые слова: фискальная политика, налогообложение, фискальная устойчивость, налоговое администрирование, цифровое управление, налоговая культура.

KIRISH

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun fiskal siyosat nafaqat davlat byudjetining daromad va xarajat qismlarini muvozanatlash vositasi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va milliy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishning asosiy tayanchi sifatida qaraladi. Ayniqsa, so'nggi o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning kengayishi, moliyaviy oqimlarning erkinlashuvi hamda transmilliy kompaniyalar faoliyatining chuqurlashuvi fiskal siyosat va soliqqa tortish tizimiga yangicha yondashuvni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Fiskal tartib (fiskal regulatsiya) tushunchasi keng ma'noda davlatning makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, byudjet taqchilligini cheklash, davlat qarzini oqilona boshqarish hamda resurslarni adolatli taqsimlashga yo'naltirilgan siyosiy-iqtisodiy mexanizmlar tizimini anglatadi. Shu tizimda soliqqa tortish mexanizmi davlat fiskal salohiyatining eng barqaror va ichki manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq tizimi samaradorligini oshirish, norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq ma'muriyatini mustahkamlash va soliq to'lovchilar madaniyatini yuksaltirish fiskal barqarorlikni ta'minlash jarayonining muhim omillari sifatida qaralmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'rtacha 35–40 % ni tashkil etsa, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 15–20 % atrofida. Ushbu tafovut fiskal siyosatning daromad bazasini qisqartirib, ijtimoiy infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim va barqaror iqtisodiy o'sish dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, soliqqa tortish



orqali fiskal tartibni mustahkamlash masalasi bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional barqarorlikni ta'minlovchi muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Nazariy manbalarda soliqqa tortish va fiskal regulyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik masalalari A. Pigü, R. Musgrave, J. Stiglitz va R. Barro kabi mashhur iqtisodchilar asarlarida keng yoritilgan. Ularning qarashlariga ko'ra, soliqlar iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash, daromadlar tafovutini kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Zamonaviy makroiqtisodiy paradigmalarda esa soliqqa tortish tizimi nafaqat byudjetni to'ldiruvchi manba, balki iqtisodiy rag'batlarni boshqaruvchi, investitsiyalar oqimini yo'naltiruvchi hamda tashqi qarzgä qaramlikni kamaytiruvchi muhim fiskal regulyator sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fiskal siyosat va soliqqa tortishning nazariy hamda amaliy jihatlar iqtisodiy tafakkurning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Soliqqa tortish mexanizmlari nafaqat davlat byudjeti daromadlarini shakllantiradi, balki iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, investitsion faollikni oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Klassik iqtisodchilar Adam Smit va Devid Rikardo soliqlarni davlat faoliyatini moliyalashtirishning zaruriy vositasi sifatida talqin etganlar. Ularning fikricha, soliqlar iqtisodiy jarayonlarga imkon qadar kam aralashishi, adolatli, barqaror va shaffof bo'lishi lozim [1]. Keyinchalik Artur Pigü tomonidan ishlab chiqilgan "ijtimoiy farovonlik iqtisodiyoti" nazariyasida soliqlar tashqi salbiy ta'sirlarni kamaytirish, iqtisodiy muvozanatni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish vositasi sifatida asoslab berilgan [2].

R. Musgrave soliqqa tortishning uchta asosiy vazifasini ajratib ko'rsatadi: resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va iqtisodiyotni barqarorlashtirish [3]. Shu ma'noda, soliqlar davlatning fiskal regulyatsiyasida markaziy o'rin tutadi, chunki ular orqali nafaqat byudjetni to'ldirish, balki iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni saqlash, hamda uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash ham mumkin.

Jozef Stiglits soliqqa tortish jarayonida adolat, samaradorlik va iqtisodiy rag'batlar muvozanatini saqlash tamoyillariga alohida e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, soliqlar iqtisodiy faoliyatni to'xtatmasligi, balki ijtimoiy ehtiyojlarni barqaror moliyalashtirishga xizmat qilishi kerak [4]. Ushbu yondashuvda fiskal siyosatning muvaffaqiyati davlat institutlarining samaradorligi, hisobdorligi va soliq to'lovchilarning ishonch darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

So'nggi o'n yilliklarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqqa tortish tizimining rivojlanish salohiyatini aniqlashga qaratilgan. R. Gordon va V. Li o'z izlanishlarida soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan past bo'lishining sabablari sifatida soliq ma'muriyati samaradorligi pastligi, norasmiy iqtisodiyot ulushi yuqoriligi hamda siyosiy muvozanat yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatganlar [5]. Shu bilan birga, ular soliqqa tortish tizimini takomillashtirish uchun fiskal islohotlar, institutsional barqarorlik va raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydilar.

T. Besli va T. Persson tomonidan ishlab chiqilgan "fiskal salohiyat" nazariyasi soliqqa tortishning institutsional asoslarini chuqur yoritib beradi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqqa tortish darajasi past bo'lishining sabablari, avvalo, tarixiy omillar, davlat boshqaruvi sifati va institutsional tizimning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi [6]. Mualliflar soliq ma'muriyatining mustaqilligi, adolatli va barqaror qonunchilik hamda soliq intizomini mustahkamlash fiskal barqarorlikni oshiruvchi asosiy omillar ekanini ta'kidlaydilar.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqlar orqali yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 15–20 foizi yig'iladi, holbuki rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 35–40 foiz atrofida shakllangan [7]. XVJ tahlillarida shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqqa tortish salohiyati hali to'liq ochilmagan, ya'ni 8–9 foizgacha qo'shimcha imkoniyat mavjudligi e'tirof etilgan. Bu esa fiskal siyosatni yanada takomillashtirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va raqamli boshqaruv mexanizmlarini chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

J. Alm va B. Torgler o'z tadqiqotlarida soliqqa bo'lgan ijtimoiy ishonch va "fiskal kontrakt" tushunchalarini rivojlantirganlar [8]. Ularning fikricha, soliq to'lovchi davlat tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning sifatini yuqori deb baholasa, soliqqa rioya qilish irodasi ortadi. Demak, soliqqa tortish samaradorligi faqat qonunchilik va ma'muriy mexanizmlar bilan emas, balki fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchi bilan ham bevosita bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqqa tortish tizimi orqali fiskal barqarorlikni ta'minlash omillari o'rganildi. Metodologik asos sifatida A. Smit, A. Pigü, R. Musgrave, J. Stiglitz, T. Besli va T. Perssonlarning fiskal siyosat nazariyalari hamda xalqaro moliya institutlari (IMF, Jahon banki) tahlillari olindi.



Tadqiqotda qiyosiy, statistik, tizimli va strukturaviy-funksional tahlil usullari qo'llanildi. Ma'lumotlar manbai sifatida xalqaro va milliy iqtisodiy hisobotlar, soliq ko'rsatkichlari hamda raqamli boshqaruv tajribalari asos qilib olindi.

Tahlil natijasida fiskal siyosat samaradorligini oshirishda raqamli boshqaruv tizimlari, soliq madaniyati va institutsional islohotlarning o'zaro bog'liqligi aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal siyosatning samaradorligi bevosita soliqqa tortish tizimining institutsional, tashkiliy va texnologik sifatiga bog'liqdir. Soliq tizimining izchil va shaffof ishlashi, bir tomondan, davlat byudjeti daromadlarini barqaror shakllantiradi, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy tenglik, iqtisodiy muvozanat hamda fiskal barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish fiskal boshqaruvning eng muhim va strategik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, fiskal barqarorlikni ta'minlash uchun soliq siyosatida institutsional islohotlar, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish va soliq ma'muriyatining salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, raqamli soliq infratuzilmasini yaratish, soliq to'lovchilar uchun qulay elektron platformalarni kengaytirish va ma'lumotlar bazasini integratsiyalash orqali soliqqa tortish jarayonlarining shaffofligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Soliq boshqaruvini takomillashtirish natijasida davlat byudjetining daromad bazasi kengayadi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va investitsion faollikni rag'batlantirish imkonini beradi. Shu jihatdan, soliqqa tortish tizimining barqarorligi makroiqtisodiy ishonchni mustahkamlovchi va iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Quyidagi bosqichlarda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda soliqqa tortish orqali fiskal tartibni mustahkamlashning asosiy yo'nalishlari va ularning iqtisodiy natijalari tahlil qilinadi (1-jadval).

1-jadval. Rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal barqarorlikni mustahkamlovchi asosiy omillar

Ko'rsatkich	Asosiy mazmuni	Amaliy ahamiyati
Soliq siyosatining barqarorligi	Soliq qonunchiligi va fiskal yondashuvlarning izchilligi, soliqqa oid qarorlarning uzoq muddatli prognoz qilinuvchanligi.	Investorlar ishonchini mustahkamlaydi, iqtisodiy faoliyatni rejalashtirishni yengillashtiradi.
Soliq ma'muriyatining samaradorligi	Soliq organlarining tashkiliy mustahkamligi, kadrlar salohiyati va raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi.	Soliq intizomini kuchaytiradi, soliq to'lovchilar bilan o'zaro ishonchni oshiradi.
Norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish	Norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi subyektlarni rasmiy soliq maydoniga kiritish hamda soddalashtirilgan tartiblarni joriy etish.	Soliq bazasini kengaytiradi, fiskal mustaqillikni oshiradi.
Soliq imtiyozlarini optimallashtirish	Samarasiz yoki tor yo'nalishli imtiyozlarni bekor qilish, ularni iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirish.	Davlat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, ijtimoiy adolatni kuchaytiradi.

Manba: Muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tahlillar asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, fiskal barqarorlikni mustahkamlash jarayoni soliqqa tortish tizimini faqat fiskal yuklamalarni oshirish orqali emas, balki boshqaruv sifatini tizimli ravishda yaxshilash orqali amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal siyosatning samaradorligini oshirish ko'p hollarda soliq siyosatining izchilligi va barqarorligi bilan belgilanadi. Barqaror va prognoz qilinadigan soliq siyosati iqtisodiy muhitni ishonchli, raqobatbardosh va investitsiyalar uchun qulay holatga keltiradi, bu esa umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Soliq ma'muriyatining raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritishi fiskal boshqaruvda inson omilini kamaytiradi, boshqaruv jarayonlarida shaffoflikni kuchaytiradi, hamda soliqdan bo'yin tovlash va korrupsiya xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa o'z navbatida soliq intizomini mustahkamlaydi va soliqqa ixtiyoriy rioya etish madaniyatini shakllantiradi.

Norasmiy iqtisodiyotni legallashtirish soliqqa tortish bazasining kengayishiga, davlat byudjetining ichki manbalar hisobidan barqaror to'ldirilishiga, hamda fiskal mustaqillikning oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarini optimallashtirish fiskal resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi, byudjet xarajatlarning samaradorligini oshiradi va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlaydi (2-jadval).



2-jadval. Soliqqa tortish orqali fiskal tartibni kuchaytirishning ustuvor mexanizmlari

Yo'nalish	Mexanizmning mazmuni	Kutilayotgan natija
Raqamli boshqaruv tizimlari	Soliq to'lovchilarni yagona elektron baza orqali boshqarish, onlayn deklaratsiyalarni avtomatlashtirish.	Soliqdan qochish holatlarini kamaytirish, fiskal oshkoralikni kuchaytirish.
Institutsional islohotlar	Soliq siyosatini amalga oshiruvchi organlarning mustaqilligini ta'minlash, etik me'yorlar tizimini joriy etish.	Soliq tizimiga ishonchni oshirish, fiskal boshqaruvni shaffoflashtirish.
Soliq madaniyatini rivojlantirish	Fuqarolar va tadbirkorlar o'rtasida soliqqa rioya qilish madaniyatini shakllantirish bo'yicha ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish.	Soliq to'lovchilarning mas'uliyatini oshirish, fiskal intizomni mustahkamlash.
Xalqaro soliq hamkorligini kengaytirish	BEPS va boshqa xalqaro fiskal standartlarni joriy etish, ikki tomonlama soliq shartnomalarini rivojlantirish.	Transmilliy kompaniyalar faoliyatida soliq adolatini ta'minlash, resurs oqimlarini tartibga solish.

Manba: Muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tahlillar asosida tuzilgan.

Ushbu jadvalda keltirilgan mexanizmlar soliqqa tortish tizimining fiskal barqarorlikni ta'minlashdagi amaliy rolini yoritadi. Eng muhim yo'nalishlardan biri — raqamli soliq boshqaruvi bo'lib, u soliqlarni yig'ish jarayonlarini soddalashtiradi, ma'muriy xarajatlarni optimallashtiradi va fiskal axborotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Institutsional islohotlar fiskal tizimning uzoq muddatli mustahkamligini ta'minlaydi. Soliq organlarining siyosiy ta'sirdan mustaqil faoliyat yuritishi, kadrlar salohiyatining yuqoriligi va normativ-huquqiy bazaning barqarorligi fiskal ishonchni oshiradi hamda davlat boshqaruvi samaradorligini mustahkamlaydi.

Soliq madaniyatining rivoji esa ijtimoiy ong va iqtisodiy mas'uliyatni shakllantirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Aholi va tadbirkorlik subyektlari soliqqa to'lovni iqtisodiy rivojlanish hamda ijtimoiy adolatga hissa qo'shish shakli sifatida qabul qilgan jamiyatlarda fiskal tizim yanada barqaror va samarali faoliyat yuritadi.

Xalqaro fiskal hamkorlikni kengaytirish, xususan BEPS (Base Erosion and Profit Shifting) standartlarini joriy etish orqali transmilliy kompaniyalar darajasida soliq bazasining yemirilishining oldini olish imkoniyati yaratiladi. Natijada fiskal boshqaruv global miqyosda uyg'unlashadi, milliy fiskal manfaatlar esa ishonchli himoya qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal tizimning barqarorligi va samaradorligi bevosita soliqqa tortish mexanizmlarining institutsional, tashkiliy hamda axloqiy poydevoriga bog'liqdir. Soliqqa tortish tizimi davlat moliyasining markaziy unsuri bo'lib, u nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirish, balki iqtisodiy barqarorlikni saqlash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va fiskal boshqaruv sifatini oshirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Soliq siyosatining izchilligi, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi, norasmiy iqtisodiyot hajmining qisqarishi hamda soliq madaniyatining shakllanishi fiskal barqarorlikni mustahkamlovchi asosiy omillar sifatida o'zaro uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, fiskal barqarorlik darajasi davlat institutlarining ochiqligi, fiskal shaffoflikning ta'minlanishi va ijtimoiy ishonchning mustahkamligi bilan belgilanadi.

Fiskal tizimni yanada rivojlantirish va soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish yo'lida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, soliqqa tortish tizimini zamonaviy raqamli boshqaruv mexanizmlari asosida modernizatsiya qilish zarur. Bu soliq ma'lumotlarini yagona raqamli platformada jamlash, deklaratsiyalarni avtomatlashtirish va soliqlardan bo'yin tovlash holatlarini minimal darajaga tushirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, soliq siyosatini uzoq muddatli barqarorlik tamoyiliga asoslash maqsadga muvofiqdir. Soliq qonunchiligida ortiqcha va tez-tez o'zgarishlarning oldini olish, tizimning soddaligi va prognoz qilinuvchanligini ta'minlash investorlar hamda soliq to'lovchilar ishonchini oshiradi.

Uchinchidan, soliq imtiyozlari tizimini qayta ko'rib chiqish lozim. Ular ishlab chiqarish, innovatsion faoliyat, yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlikni rag'batlantiruvchi yo'nalishlarga yo'naltirilishi zarur.

To'rtinchidan, soliq madaniyatini oshirish maqsadida fuqarolar o'rtasida "soliq bu ijtimoiy majburiyat" degan tushunchani shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli ma'rifiy va axborot dasturlarini amalga oshirish muhimdir.

Beshinchidan, xalqaro soliq hamkorligini kengaytirish va BEPS (bazani yemirish va foydani ko'chirishga qarshi kurash) kabi global fiskal me'yorlarni joriy etish zarur. Bu transmilliy kompaniyalar faoliyatida soliq adolatini ta'minlaydi hamda fiskal resurslarning oqilona taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, soliqqa tortish tizimi orqali fiskal barqarorlikni kuchaytirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan kompleks islohotlarni talab etadi. Fiskal boshqaruvning samaradorligi, davlat institutlarining



mustahkamligi va jamiyatdagi fiskal ishonch darajasi ortgan sari, soliqqa tortish tizimi davlatning iqtisodiy mustaqilligi va barqaror rivojlanishining strategik poydevoriga aylanadi. Shu bois, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish — bu faqat moliyaviy mexanizmni yangilash emas, balki milliy iqtisodiyotning institutsional, ijtimoiy va intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan chuqur transformatsion jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith, A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: Methuen & Co., 1776. — 2 jild.
2. Pigou, A. C. The Economics of Welfare. London: Macmillan, 1920. — 467 b.
3. Musgrave, R. A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. New York: McGraw-Hill Book Company, 1959. — 628 b.
4. Stiglitz, J. E. Economics of the Public Sector. New York: W. W. Norton & Company, 1988. — 823 b.
5. Gordon, R., Li, W. Tax Structures in Developing Countries: Many Puzzles and a Possible Explanation. // Journal of Public Economics. 2009. Vol. 93, No. 7–8. P. 855–866.
6. Besley, T., Persson, T. Why Do Developing Countries Tax So Little? // Journal of Economic Perspectives. 2014. Vol. 28, No. 4. P. 99–120.
7. International Monetary Fund (IMF). Countries Can Tap Tax Potential to Finance Development Goals. Washington, D.C.: IMF Blog Post, 2023. — Available at: <https://www.imf.org/en/Blogs/Articles/2023/09/19/countries-can-tap-tax-potential-to-finance-development-goals>
8. Alm, J., Torgler, B. Do Ethics Matter? Tax Compliance and Morality. // Journal of Business Ethics. 2011. Vol. 101, No. 4. P. 635–651.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>